

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
“O‘ZBEKISTON MILLIY
ELEKTR TARMOQLARI”
AKSIYADORLIK JAMIYATI



THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
JOINT STOCK COMPANY
“NATIONAL ELECTRIC
GRID OF UZBEKISTAN”

BUYRUQ

2026-yil 30-aprel

108-son

Toshkent shahri

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
2026-yil 1-apreldagi PF-51-son Farmoni
ijrosini ta’minlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholi bilan muloqot tizimini samarali tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2026-yil 1-apreldagi PF-51-son Farmoni ijrosini ta’minlash, barcha bo‘g‘inlardagi rahbarlarning aholi murojaatlari bilan ishlash bo‘yicha shaxsiy mas’uliyatini oshirish hamda energetika sohasidagi tizimli muammolarni tezkor bartaraf etish maqsadida,

BUYURAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 1-apreldagi PF-51-son Farmoni ijro uchun qabul qilinsin.

2. “O‘zbekiston MET” AJda aholi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotni tashkil etish va murojaatlarni ko‘rib chiqish monitoringini yuritish bo‘yicha doimiy faoliyat yurituvchi Ishchi guruh ilovaga muvofiq tarkibda tashkil etilsin.

3. Ishchi guruhning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

3.1. murojaatlarda ko‘tarilgan muammolarni qonuniy hal etish bo‘yicha kechiktirib bo‘lmaydigan choralar ko‘rish, rasmiyatchilik va “yuzaki javob berish” holatlariga chek qo‘yish;

3.2. elektr ta’minotidagi uzilishlar bilan bog‘liq takroriy murojaatlarning sabablarini har o‘n kunda tahlil qilish va ularni bartaraf etish bo‘yicha texnik takliflar ishlab chiqish;

3.3. Jamiyat rahbariyatining hududlarda sayyor qabullarini tashkil etish;

3.4. Jamiyatning barcha filial direktorlarining murojaatlarni sifatli va belgilangan muddatlarda ko‘rib chiqilishi hamda ularga javob berilishi bo‘yicha shaxsiy mas’uliyatiga baho berish.

4. MBIB (Umarova):

4.1. uch kun muddatda aholi murojaatlarini hal etish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi hamda 2026-yil II–III choraklari uchun sayyor qabullar grafisini tasdiqlash uchun kiritilsin;

4.2. aholi murojaatlari ko‘rib chiqilishini doimiy monitoring qilib borsin hamda har o‘n kunlik yakuni bo‘yicha tizimli muammolarni sohalar va hududlar kesimida tahlil qilsin;

4.3. aniqlangan tizimli kamchiliklar va ularni keltirib chiqarayotgan sabablarni bartaraf etish bo'yicha Ishchi guruhga hamda Jamiyat rahbariyatiga muntazam ravishda tanqidiy axborot va takliflar taqdim etsin;

4.4. Ishchi guruh takliflari va tahliliy ma'lumotlar asosida har chorak yakuni bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hamda Energetika vazirligiga hisobot yuborilishini ta'minlasin.

5. Boshqaruv raisining o'rinbosari F.Qurbonov asosli ravishda takroriy shikoyatlar kelib tushishiga sababchi bo'lgan yoki fuqarolarga noto'g'ri ma'lumot taqdim etgan mas'ul rahbar va xodimlarga nisbatan egallab turgan lavozimidan ozod etishgacha bo'lgan choralarni qo'llash bo'yicha takliflar kiritsin.

6. Mazkur buyruq ijrosining nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.



Boshqaruv raisi

A. Nazirov

Tarqatiladi: IYXB, barcha departamentlar, boshqarmalar, xizmatlat va bo'limlar hamda MET filiallariga
Bajardi: MBIB (32-305)